

HARBIY TIZIMDA TARBIYA JARAYONINIG TAMOYILLARI VA UMUMIY XARAKTERISTIKASI

Axmedov Baxtiyor Shodiyorovich

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxasislarni tayyorlash markazi
Gumanitar va ijtimoiy fanlar sikli o'qituvchisi, Samarqand viloyati Samarqand shahri,
zaxiradagi podpolkovnik*

GENERAL CHARACTERISTICS OF THE PRINCIPLES OF EDUCATIONAL PROCESS IN THE MILITARY SYSTEM

Akhmedov Bakhtiyor Shodiyorovich

*Armed Forces of the Republic of Uzbekistan Training Center for Junior Specialists
Teacher of Humanities and Social Sciences Cycle, Samarkand City, Samarkand Region,
reserve lieutenant colonel*

Annotatsiya: *Ushbu maqoladi komandirlar tomonidan bo'usinuvchilarni tarbiyalash, ularda Vatanga bo'lgan sadoqatini tarbiya timsolida oshirish, komandirlar o'z bo'ysinuvchilarini tarbilashi davomida ularda mardlik, jasorat, qahramonlik, matonat, dadillik, mustaqillik, tashabbuskorlik, faollik va intizomlilik sifatlarini oshirish borasida ayrim ko'rsatmalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Tarbiya, harbiy xizmatchilar tarbiyasi, harbiy xizmatchilarning tarbiya tamoyillari, intizom, jamoaviylik tamoyili, harbiy tarbiya.*

Abstract: *In this article, commanders educate their subordinates, increase their loyalty to the Motherland in the form of education, and during the training of their subordinates, commanders raise the qualities of bravery, courage, heroism, fortitude, courage, independence, initiative, activity, and discipline in them. instructions have been given.*

Key words: *Education, education of military personnel, principles of education of military personnel, discipline, principle of teamwork, military education.*

Tarbiya – har bir shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan aqliy-jismoniy, badiiy-estetik va axloqiy-ma'naviy xususiyatlarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Tarbiya – shaxsni muayyan yo'nalishda shakllantirish va kamol toptirish maqsadidagi ta'sir ko'rsatish jarayoni.

Tarbiyalanganlik – milliy urf-odatlarimiz talablariga zid bo'lgan va o'zgalarning nafratini qo'zg'atadigan xatti– harakatlardan o'zini tiya bilishlik. Tarbiyaning maqsadi – barkamol insonni voyaga yetkazish.

Tarbiyaning vazifasi – insonda zarur fazilatlarni shakllantirish va kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat.

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan bo‘lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan.

Tarbiya tamoyillari – tarbiya jarayoni qonuniyatlari. Tarbiyaviy jarayonda ilg‘or tamoyillarga amal qilinishi tarbiya samaradorligini ta‘minlaydi.

Harbiy xizmatchilarning tarbiya tamoyillari - bu shunday tarbiya jarayoniki harbiy xizmatchilarga norma va qonuniyat sifatida xizmat qiladi. Tarbiya tamoyillari mohiyatiga ko‘ra yo‘nalganlikni, mazmuni, tarbiya jarayonining metodik jihatdan tashkillashtirishi o‘z ichiga oladi.

Tarbiya qonuniyatlarida ko‘p yillik harbiy xizmatchilarning tajribasi va xarbiy faoliyatda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasi mujassam etgandir. Tarbiya tamoyillari mazmuni jihatidan ob‘ektiv hisoblansa, shakl jihatdan sub‘ektivdir.

Tarbiya tamoyillari deganda tarbiya jarayonining qonuniyatlaridan kelib chiqadigan, tarbiya jarayonining mazmuniga, metodlariga va uni tashkil etishga quyiladigan asosiy talablarni ifodalovchi, boshlang‘ich (asos bo‘lgan) qoidalarni tushuniladi. Ular tarbiya jarayonining xususiyatlarini aks ettiradi. Tarbiya tamoyillariga pedagoglar tarbiyaviy vazifalarni hal etishda amal qiladilar. Tarbiyaning tamoyilari deb yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va talablarni milliy qadriyat ruhida tarbiyalashning mazmuni, mohiyati va yo‘nalishiga quyiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g‘oyalar va qoidalar yig‘indisini aytiladi.

Tarbiya tamoyillariga pedagoglar tarbiyaviy vazifalarni hal etishda amal qiladilar. Tarbiya tamoyillariga quyidagi talablar quyiladi:

Birinchi talab-majburiylik (ya'ni, tarbiya tamoyillari shunchaki maslahat yoki tavsiya bo‘lmasdan, ular muqarra ravishda pedagogik amaliyotga tatbiq etilishini talab qiladi);

Ikkinchi talab-komplekslilik (ya'ni, tarbiya tamoyillari tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida bir vaqtning o‘zida, frontal holda qo‘llaniladi, ularning ketma-ket, alohida qo‘llanishlariga yo‘l quymaslik kerak);

Uchinchi talab-baravar qimmatlilik (ya'ni, tarbiya tamoyillari umumiy va asosiy qoidalar sifatida eng qimmatli, baravar bo‘lib, ularning orasida asosiy va ikkinchi darajali prinsiplar bo‘lmaydi).

Tarbiya tamoyillari «tayyor reseptlar» «universal qoidalar» emas, pedagoglar ulardan foydalanganlarida avtomatik tarzda yuqori natijalarni birdangina olmaydilar.

Tarbiya tamoyillarining talablari umumiy, ammo, har bir ofiser o‘z bilimi, tajribasi, mahoratiga tayanib, ulardan ijodiy foydalaniladi.

HARBIY TARBIYA

Harbiylashtirilgan tizimlar uchun yetuk va barkamol kadrlarni tarbiyalash ularda Vataniga, xalqiga, millatiga va taraqqiyotiga sadoqat, yuksak ma'naviy, madaniy, jismoniy, aqliy, ongliy va hamda insoniylik fazilatlarini har tomonlama takomillashtirish, fuqarolar osoyishtaligini kafolatlashga va mamlakat qudratini oshirishga xizmat qilishni tarbiyalashdir. Bunday tarbiyani berishda vatanparvarlik, ayniqsa uni oliy ko'rishini bo'lgan harbiy vatanparvarlik g'oyalari muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda turli davlatlar va jamiyatlar orasida madaniy, ma'rifiy, iqtisodiy sohalarda, hatto harbiy sohada ham o'zaro aloqalar rivojlangan. Bizning g'oyalarimizda «jahon andozalari», «jahon talablari» degan atamalar o'rin olgan. Bu andozalar, bu talablarga javob berish uchun jamiyat turmushining barcha jabhalarida chuqur islohotlar olib borilmoqda. bu islohotlar ta'lim-tarbiya sohasini ham ishlab o'tgani yo'q istiqbolning dastlabki kunlaridanoq ta'lim-tarbiya sohasiga jiddiy e'tibor qaratilib, yangidan-yangi muassasalar tashkil qilindi, ko'plab harbiylarning har tomonlama tarbiyalashi va tayyorlashi uchun harbiy ta'limgaariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Harbiy xizmatchilarning oldiga qo'ygan tarbiya tarmoqlari boshqa soha mutaxassisga nisbatan ko'proq mardlik, matonat, jasurlik, chaqqonlik va fidoiqlik fazilatlarini, o'z Vatanining oldidagi burchi va qasamyodiga sodiqlikni talab etadi. Xuddi shu nuqtai nazarda davlat va jamiyatning harbiy xizmatga e'tibori, g'amxo'rliqi, rag'batu-hurmati eng yuksak darajada bo'lmog'i lozim. Harbiy tarbiya davlat uchun, xalq uchun juda zarur hisoblanadi.

Hozirgi zamon holati shaxsiy tarkibinning ma'naviy va ruhiy sifatlarini oshirish talabini taqozo etadi. Bu uning quyidagi jihatlari bilan baholanadi:

- Hozirgi zamon jangchi jangovar harakatlarning o'zgarishlarga boyligi va keskinligi bilan:
 - Jangovar harakatlarda katta bo'lmagan guruhlar (3-tadan 20-tagacha) jangovar harakatlarni olib borish;
 - Jangovar harakatlar to'satdan boshlanib tez tamom bo'lishi;
 - Tog'li tumanlarda bo'lishi bilan harakatlantiradi.

Bunday sharoitlar shaxsiy tarkibning ishonchli, mohirona va tashabbuskorlik ila harakat qilishiga tayyorlash alohida ahamiyatga ega. Harbiylarning ma'naviy va ruhiy sifatlar mohiyatiga aniqlik kiritib, ular o'zida insoniyat ongida shaxsiy axloqiy va iroda komponentlaridan iborat jangchilik sifatlarini quidagicha aks ettirish mumkin:

Mardlik - insonning chidamlik, uddaburonlik, qat'iyatlik qobiliyatini xarakterlaydigan ma'naviy sifat;

Jasorat - dadil qarorlar qabul qilish va ularni shijoat bilan bajarish qobiliyati tushuniladi;

Qahramonlik - mardlikning yuksak ko'rinishi bo'lib, jangchining Vatan dushmanlari bilan ma'naviy mas'uliyatli tarzda namoyon bo'ladi;

Matonat - jangchining ma'naviy va jismoniy chidamligining ko'rinishlaridan biridir;

Dadillik - bu prinsiplarni saqlab qolishdagi ishonch va qattqlikning namoyon bo'lishidir;

Mustaqillik - o'z ishini chuqur bilishga o'z kuchi va qobiliyatiga ishonishiga asoslangan sifat;

Tashabbus - quyilgan vazifa va komandir buyrug'ini bajarishda ijod qilish qobiliyatini sifati;

Faollik - vazifalarni bajarishga aql-idrok va namunali tarzda, bor ma'naviy va jismoniy kuch-qudratni safarbar etishadi;

Intizomlilik - harbiy qasamyod, harbiy Nizomlar talablarini ongli ravishda bajarilishi sifati.

Har bir harbiyning hushyorlikka tarbiyalashda Nizom tartibi, yuksak tashkilotchilik va ichki xizmatni namunali bajarishga odatlantirish kerak. Yoshlarni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyasida ularning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil qilish muhim omil hisoblanadi. Lekin bugungi kunda yoshlarimizning kutubxonalarga borishi, madaniy xordiq chiqarish muassalarida bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish, mustaqil mutolaa bilan shug'ullanish talab darajasida emasligini ham tan olmoq zarur. Hozirgi kunda yoshlarimizni turmushiga, hayotga, xizmatga tayyorlash ishlari har bir tuman va shaharlarda, ta'lim-tarbiya muassasalarida olib borilmoqda. Chunki har tomonlamma mustahkam kamol topgan shaxsni, oilani faqat ham jismonan, ham ma'nan tayyor bo'lgan yoshlarga qura oladi.

Harbiylar tarbiyasi milliy istiqloq mafkurasiga qay darajada bog'liq ekanligini biz yaxshi bilamiz. Milliy istiqloq mafkurasi-bu juda ham keng tushuncha bo'lib, yoshlarimizni shu mafkuraga doimiy ravishda tayyorlanib borishimiz zarur.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda mavzuga quyidgicha xulosa qilish mumkin:

1. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo'lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo'lib kelgan.

2. Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi.

3. Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, shuningdek, bu boradagi vazifalarni ijobiy hal etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev SH.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”.//T.: ”O‘zbekiston”, 2017, 179-bet.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”.//T.: Ma’naviyat, 2008. – 137-bet.
3. Karimov I.A. Milliy armiyamiz – mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003. – B. 28.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-sonli Qarori// Xalq so‘zi, 2018 yil 6 avgust.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-sonli Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 495 b.